

# Yashil karta

## Yashil karta nima

Bu RF hududida ishlovchi chet el fuqarolari uchun majburiy hujjat hisoblanadi.

## Yashil karta nima uchun kerak

Quyidagi hujjatlarni rasmiylashtirish uchun:

- RF hududida vaqtinchalik bo'lish
- yashash guvohnomasi
- mehnat patenti
- islashga ruxsatnoma olish uchun.

Yashil hujjat sizning majburiy tibbiy ko'rikdan o'tganingiz, barmoq izlarini topshirganingiz va IIV bazasi uchun suratga tushganingizni tasdiqlaydi.

## Yashil karta kimlarga kerak

6 yoshdan katta barcha xorij fuqarolari uchun.

**Istisno:** Belarus fuqarolari va 6 yoshgacha bo'lgan bolalar, shuningdek, qochoq deb tan olingan va RF hududida vaqtinchalik boshpana topgan fuqarolar bundan mustasno.

## Rasmiylashtirish uchun hujjatlar

- Pasport yoki ID
- Pasport yoki IDning rus tiliga tarjimasi (notarius tomonidan tasdiqlangan)
- Migratsiya kartasi
- Migratsiya hisobiga turganlik haqida bildirishnoma

## Yashil karta qayerdan olinadi

Har bir mintaqada tibbiy ko'rikdan o'tish, barmoq izlarini topshirish va suratga tushish imkoni mavjud markazlar mavjud. Bunday markazning manzilini mintaqangiz ma'muriyatining rasmiy saytida topish yoki bunday axborotni IIVning mahalliy bo'limini olish mumkin.

## Yashil kartani qachon olish kerak

RF hududiga kelgandan keyin 30 kun ichida

## Yashil karta qanday shaklda bo'ladi



## Amal qilish muddati

1 yil

## Muhim

- Barmoq izlari RF hududiga birinchi marta kirilganda topshiriladi.
- Tibbiy ko'rikdan har yili o'tish talab etiladi.
- Tibbiy ko'rikdan o'tganlik ma'lumotnomasida uning amal qilish muddati ko'rsatiladi. Ushbu muddat tugagandan keyin, qayta tibbiy ko'rikdan o'tish lozim.